



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 yil 20-mart, № 56 (8951)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH BUNDAN KEYIN HAM DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRI BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-mart kuni kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.



Yurtimizda bu soha ish o'rni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksportni ko'paytirishga eng katta turtki berayotgan yo'nalishga aylandi. So'nggi besh yilda kichik va o'rta tadbirkorlar soni 2 karra ko'paydi. Ularda 10 million 500 ming odam — jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro'zg'or tebratyafti. Iqtisodiyot hajmining yarmidan ko'progi shu soha vakillari hissasiga to'g'ri kelyapti.

Ushbu raqamlarning o'ziyoq mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun kichik va o'rta biznes qanchalik muhimligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Davlatimiz rahbari shu bois mazkur yo'nalishni qo'llab-quvvatlash bundan keyin ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishini ta'kidladi.

— Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash — bizning strategik yo'limiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Uchrashuvda kichik va o'rta biznes yo'nalishidagi ustuvor vazifalar haqida fikr almashildi.

Xususan, 2025-yilda uning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga ko'tarib, 70 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish;

— yangi bozorlarga kirib borishda transport, sertifikat va standartiga ko'maklashib, kichik biznes eksportini o'tgan yilgi 9 milliarddan 12 milliard dollarga olib chiqish;

— ichimlik suvi, kanalizatsiya, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, yetkazib berish, utilitatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini 2-3 karra oshirish;

— 1,5 million doimiy ish o'rni tashkil qilib, sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish;

— 100 nafardan ko'p ishchisi bor korxonalarini 4 mingtaga olib chiqish;

— kichik biznesda yangi 100 ta brend

mahsulot chiqarishni yo'lga qo'yish;

— kichik biznes ishtirokida 200 ta startap loyihalarni moliyalashtirish kabi katta maqsadlar qo'yilmoqda.

Bu borada xorijiy ekspertlar bilan birga dastur ishlab chiqildi. Unga 2025-yilda barcha manbalar hisobidan 10 milliard dollar yo'naltirilmoqda.

Prezidentimiz buning samarasida kichik va o'rta biznesga yaratiladigan yangi imkoniyatlarni alohida qayd etib o'tdi.

Xususan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 trillion so'mlik imtiyozli resurs ajratiladi. Shuning 2,5 trillion so'mi yoshlarga, yana shunchasi ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun yo'naltiriladi. Ayol tadbirkorlarga kredit stavkasi boshqalarga nisbatan 2 foiz arzon bo'ladi.

Joriy yildan kichik biznesga 300 million so'mgacha kredit berila boshlandi. Endi oxirgi bir yilda yiriklashib, kichik yoki o'rta korxonaga aylangan tadbirkorlarga shuning 150 million so'mi garovsiz

beriladi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik bo'yicha ham 50 million so'mgacha garovsiz kredit bo'ladi.

Biznesni moliyalashtirishda muqobil manba sifatida vechur fondlar ommalashmoqda. Besh yilda ular ishtirokida 145 million dollarlik 53 ta startap loyiha amalga oshirildi.

Buni kengaytirish maqsadida davlat banklari tomonidan yana 3 ta vechur kompaniya ochilib, 50 million dollar fond shakllantirildi. Xorijdan ham yana 50 million dollar jalb qilinadi. Bu biznesni boshlayotgan tadbirkorlar uchun qo'shimcha imkoniyat bo'ladi. Eng muhimi, bunday loyihalar iqtisodiyotga yangi yo'nalish, texnologiya, innovatsiya va yuqori qo'shilgan qiymat olib kiradi.

Startap orqali yaratilgan yuqori samarali innovatsion mahsulot yoki xizmatlar texnik reglament va standartlarga qaratiladi. Bu ularga davlat buyurtmasi uchun yo'l ochadi.

Biznes uchun yaratilgan sharoitlar evaziga so'nggi uch yilda 250 ming yangi korxonalar tashkil topdi. Endi ularning faoliyati kengayishi uchun joy va bino kerak. Shu bois hokimlar yer tanlashda, eng avvalo, ishini yo'lga qo'yib, rivojlanish istagida yurgan tadbirkorlar so'ragan joylarni auksionga chiqarishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Yana bir yangilik: bu yil Qo'ng'iro't, Chimboy, Asaka, G'jduvon, G'allaorol, Yakkabog', Xatirchi, Chortoq, Bulung'ur, Sirdaryo, Denov, Quva, Shovot tumanlari hamda Yangiyo'l va Marg'ilon shaharlarida barcha davlat idoralari bitta ko'p qavatli binoga ko'chiriladi. Ulardan bo'shaydigan 150 ta bino auksionda tadbirkorlarga taklif qilinadi.

Bunday yangiliklar qishloq xo'jaligi sohasida ham bor. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Toshkent va vohiy viloyatlarida 5 ming gektardan ziyod yer yangicha tartibda ijaraga berilmoqda. U yerda tadbirkorlar o'zi xohlagan ekini ekib, bir qismiga saqlash, saralash, qadoqlash quvvatlari qurishi ham mumkin. Bu yil yana 30 ming gektar yer shunday tizim asosida savdoga chiqarilishi aytiladi.

Yaqinda "Uzagrostar" xolding kompaniyasi tashkil qilingan edi. Uning tarkibida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan 16 ta kompaniya ochildi. Endi bu kompaniyalar har bir viloyatda meva-sabzavotni qayta ishlaydigan agrosanoat majmualari quradi. Bunga dastlabki bosqichda yana 200 milliard so'm beriladi.

Salohiyatli yo'nalishlardan yana biri — ishlab chiqarish. Joylarda bunga intiluvchilar ko'p, lekin hammasi ham ishini nimadan boshlash, qayerdan mutaxassis va texnologiya olib kelishni bilmaydi.

Shu bois 20 ta tumanda kichik va o'rta sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha loyiha o'zgarishi o'zgarishi ma'lum qilindi. Ularga xorijiy muhandis, texnolog, dizayner, buxgalter va marketologlar olib kelinadi. Bunga shu yilning o'zida 100 milliard so'm ajratiladi.

Bundan tashqari, kichik biznesda yangi drayver bo'ladigan uskunalar va dastgohlar, tibbiy vositalar, elektronika sanoati, logistika kabi sohalarda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida dasturlar qabul qilinishi aytiladi.

Yangi tadbirkorlar "oyoqqa turib olishi" uchun faoliyatining birinchi yili muhim. Shu bois ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida "birinchi imkoniyat" tamoyili joriy etildi. Ya'ni ilk bor ma'muriy huquqbuzarlik qilgan tadbirkor javobgarlikdan ozod qilinib, unga

kamchilikni bartaraf etish uchun imkoniyat beriladi.

Hozirda faoliyatni tugatish uchun barcha toifadagi tadbirkorlarga bir xil talab belgilangan. Endi bu jarayon ham soddalashadi. Oxirgi uch yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan oshmagan, soliqdan qarzi bo'lmagan korxonani ixtiyoriy tugatishda tekshiruv o'tkazilmaydi.

Ma'lumki, yurtimizda 2028-yil 1-yanvargacha qadar qo'shimcha qiymat solig'i va foyda solig'i stavkasi oshirilmaligi belgilangan. Endi kichik va o'rta biznesga qo'shimcha talab va majburiyat yuklaydigan me'oriy hujjatlar qabul qilishga ham uch yillik moratoriy e'lon qilindi.

Fermerlar uchun ham muhim yangilik: soliqdan qarzini vaqtida to'lay olmagani uchun shu paytgacha yig'ilib olgan 1 trillion so'mlik penyani undirishdan voz kechildi.

Dunyoda keng rivojlanayotgan sun'iy intellekt, raqamli va "yashil" texnologiyalar, kreativ xizmatlar sohasidagi loyihalarga ham qulay sharoitlar yaratib berilishi ta'kidlandi.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish strategiyasini xalqaro moliya tashkilotlari ham qo'llab-quvvatlamog'da. Prezidentimiz uchrashuvda Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Fransiya taraqqiyot agentligining vakolatxonalar rahbarlari bilan ham muloqot qildi. Xalqaro moliya tashkilotlariga amaliy hamkorligi va ko'rsatayotgan yordami uchun minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda tadbirkorlar so'zga chiqib, faoliyatini kengaytirish, yangi bozorlarga kirib borish, standartlarni o'rganish, brend yaratish, startaplarni yuzaga chiqarish bo'yicha takliflarini aytdi. Davlatimiz rahbari buning uchun kichik biznes uyushmasi tashkil qilish tashabbusini qo'llab-quvvatladi.

Tadbirkorlar hamisha qonun va davlat himoyasida ekani ta'kidlandi.

— Prezident doimo sizlarga eng yaqin ko'makchi, tayanch va suyanch bo'ladi. Sizlar yangilik qilishdan charchamanglar, men qo'llab-quvvatlashdan charchamayman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Uchrashuvda muhokama qilingan masalalar va takliflardan kelib chiqib, Prezident Farmoni qabul qilinadigan bo'ladi. Ushbu Farmondagi yengilliklar qo'shimcha hujjatlarni kutmasdan to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga kiritiladi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQLIDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari yaqinlashib kelayotgan bahor ayyomi — Navro'z munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, mustahkam sog'liq, farovonlik va muvaffaqiyatlar, birodir O'zbekiston va Turkmaniston xalqlariga tinchlik-osoysizlik va ravnaq tiladilar.

Do'stlik, ishonch, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali O'zbekiston — Turkmaniston munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

2024-yilda o'zaro tovar

ayrilib boshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmoqda va kooperatsiya chuqurlashmoqda. Birgalikda "Shovot — Toshovuz" chegaraldagi savdo zonasini tashkil etilmoqda, hududlararo faol aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuv dasturi doirasida tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy sheriklik, muhim forum hamda anjumanlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish masalalariga alohida to'xtalidilar.

Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo plyus" formatida o'tkaziladigan sammitlar hamda Toshkent shahrida mintaqaviy davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi kum tartibi yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari joriy yil dekabr oyida Ashxobod shahrida Turkmaniston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan e'lon qilingan Xalqaro tinchlik va ishonch yili doirasida o'tkaziladigan forum va boshqa xalqaro tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI MASLAHATCHI SUMA CHAKRABARTI BILAN UCHRASHUV O'TKAZDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchi Suma Chakrabartini qabul qildi.

Maslahatchining joriy yilgi faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimiz investitsiyaviy salohiyatini xalqaro maydonda yanada ilgari surish, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini yakunlash bo'yicha amaliy choralar ko'rish, xorijdagi yetakchi ta'lim muassasalarida davlat xizmatchilarining malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak O'zbekiston investitsiya salohiyati "roud-shousi" va Toshkent xalqaro

investitsiya forumini yetakchi xorijiy kompaniyalar va moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda yuqori saviyada o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Uchrashuvda Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Toshkent xalqaro tijorat sudini ishga tushirishning amaliy jihatlari, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rni muhokama qilindi, iqtisodiy rivojlanish sohasida fundamental tadqiqotlar olib borish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlarga to'xtalib o'tildi.

O'zA.

hamda mutaxassislar malakasini oshirish yuzasidan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari xususida ham fikr almashildi.

Tomonlar O'zbekiston va YUNISEF o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, mavjud loyihalarni yanada samarali amalga oshirish hamda bolalarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yangi tashabbuslarni ilgari surish masalalarida birgalikda ish olib borishga kelishib oldilar.

Muloqot yakunida bolalar va yoshlar uchun barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratish yo'lida o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash muhim ekanligi qayd etildi. "Xalq so'zi".

## Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar



## SAHRO JAVOHIRI

1

— Bu yoqqa qarang! — xitob qildi uchog'imiz Haydarko'ldan o'tganda oykulchaday oynadan osmonni tomosha qilib kelayotgan hamrohim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli fotomuxbir Abdug'ani Juma. — Kim aytadi bu yerlarni Qizilqum deb, cho'l deb?!

O'rnimdan yarim ko'tarilib, tashqariga mo'ralayman. Qarayman, yuragim hapriqib ketadi. Pastda etaklarda "Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadi" deyilish cho'l — Qizilqum emas, afsonaviy eram bog'lari yastanib, tovlanib yotganday. Saraton quyoshida tuya o'rkaqlari misoli saf-saf barxanlar aro kengigan sap-sariq sarob yo'lqinlari bugun xuddi moviy dengiz to'lqinlariga aylanib, bahor havolarida beshik-beshik to'lg'anayotganday...

— Qayerda bor bunday go'zallik! — samolyotni boshiga ko'targudek hayqiradi Abdug'ani Juma. — Navoiy deydilar buni!  
— Har qadami tillo — oltin, kumush, marmar, fosforit, uran, kvars, feruza,

ohaktosh... — deya maqtanishda to'xtamaydi u:  
— yurtimizdagi eng boy va bepoyon cho'l qayerda? — Navoiyda;  
— eng yirik oltin va kumush konlarichi? — Navoiyda;  
— eng katta issiqlik elektr stansiyasi, — eng ulkan sement zavodi,  
— dunyodagi eng bebaho sur teri,  
— O'zbekistondagi mashhur kimyo korxonalari va marmar konlari ham Navoiyda.

Bekorga sahro javohiri, demaydilar. Sarmishsoy, Sangijumon, "Tosh o'mon" mo'jizalarining esa Yer yuzida qiyosi yo'q. Quchoq'ining kattaligi, bag'rining kengligini aytaysizmi?  
O'zbekistonda Qoraqalpog'istonda bo'lak hududi unga teng keladigan viloyat yo'q! Bir yog'i Qoraqalpog'istonda Haydarko'l, Qozog'istonda Buxoro, yana bir tomoni Samarqand Jizzax. Yana deng, dunyodagi Malavi, Lesoto, Sloveniya, Sent-Lyusiya, Yangi Kaledoniya degan davlatlardan bir necha barobar katta.



## O'zbekiston va YUNISEF:

## O'ZARO ALOQALARNING MUHIM BOSQICHI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Rexina Mariya Kastijio xonim bilan uchrashdi.

### Muhokama

Unda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish, bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari

muhokama markazida bo'ldi.

Muloqot chog'ida O'zbekistonda bolalar manfaatlarini himoya qilish va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Xususan,



# SAHRO JAVOHIRI

← Bilaman, — sherk bo'laman fotograf do'stinning iftixoriga. — Qizilchanning o'ziga Tinch okeanidagi Tonga degan davlatning ikki-uchtasi o'ynab-o'ynab singib ketadi. Navoiy mamlakatimiz viloyatlari orasida eng kenjasi bo'lishiga qaramay...

— Shunday. 1982-yilda asos solingan, 1988-yilda tugatilgan. 1992-yili Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan yana qayta tashkil etilgan, — deb so'zini bo'ladi u. — Aholisiyam uncha ko'p emas, 1 milliondan sal ziyod. Lekin bu viloyat tarixi ana shu yillardan boshlanadi, degani emas. Uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo'shgan qadimiy va boy o'tmishi bor. Qizilqumda, Qoratovda, Nurota atroflarida qadimiy manzillar shu qadar ko'pki, ularning ba'zilarini yurtdoshlarimiz ham yaxshi bilmaydi. Masalan, "Uchta bunt 200 — 100 ming yillar avvalgi ibtidoiy davrlardayoq odamlar bu yerdan chaqmoqtosh qazib olganini isbotlashgan. Dastlabki paytlarda ochilish qolgan yerlardagi chaqmoqtosh g'uddalari yirik toshlar bilan urib ushatilgan. Keyinroq bu yumush yog'och tayoqlar, undan keyin Buxoro o'rtasidagi shoxlaridan, yovvoyi ho'kiz, bug'u va boshqa jonivorlar suyaklaridan yasalgan cho'kichlar, kuraklar yordamida amalga oshirilgan. Hozirgacha 48 ta shaxta o'rganilgan va har biri o'rtacha 35 — 45 kilogrammdan bo'lgan 8000 ta g'udda qazib olingan. Bu joy ibtidoiy davrda Markaziy Osiyoda chaqmoqtosh olingan yagona makon hisoblanadi. Bunaqa shaxtalar jahonda kamdan-kam uchraydi.

Hamrohining so'zlari "Ochiq osmon ostidagi muzey" — Sarmishsoyni esga tushirdi. Sarmishsoy petrogliflari — O'zbekiston hududida eng ko'p, eng beqiyos qoyatosh rasmlari saqlab qolingan vodiylar hisoblanadi. Bu yerdagi qoyatosh suratlarida, bundan 5 — 7 ming yil avvalgi hayot tasvirlangan. Sarmishsoyda qariyb 22,5 kilometr masofadagi qoyatoshlar o'yib solingan 10 mingdan ortiq rasmlar bilan yuzmayuz kelgan kishi beixtiyor ming-ming yillar avvalgi odamlar davrasiga tushib qolgandek sehirlanadi, o'ya toladi; qo'lidagi uzun nayzalarni o'qitilgan hay-haylagan ko'yi bahaybat hayvonlarni quvib borayotgan ovchilarning jangovar hayqirig'ini eshitganday bir g'ralati titroq qoplaydi jonu jahonini. Qizil va qora rangli qumtoشلarga hamda slanesli qoyalarning tik va yetiq sirtiga solingan tasvirlar afsonaviyligi bilan maftun qiladi; gajakdor shoxli arxarlar, tog' echkilari, yovvoyi buqa-yu to'ng'izlarni nayzakamonda ovlayotgan ovchilarga qo'shib ketayotgandek sezasiz o'zingini.

Tasvirlanayotgan yana bir hayratli jihati shundaki, ularning ba'zilar yomg'ir yoqanda ko'rinsa, ayrimlari quyosh nur tik tushganda paydo bo'ladi. Shunday suratlar ham borki, uni ko'zingiz yorug'lik qiya tushganda yoki soyada iflag'aydi. Faqat shu emas, Sarmishsoy azaldan o'ziga xos juda boy hayvonot dunyosiga ega manzil hisoblanadi. Bu yerda o'simliklarning 62 o'lasiga mansub 650 tur uchraydi. Ularning anchasi O'zbekiston "Qizil kitob"iga; kapchabosh ilon, echkiemar, burgut, qora baliq, ko'lvor ilon, sariq ilon, jo'rchi, zarg'aldoq, kaklik, bedana, jayralar esa Xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan.

Umumiy maydoni 5000 gektardan mo'roq bo'lgan va "Sarmish" tabiat bog'i deb e'lon qilingan ushbu tarixiy meros petrogliflari jahon miqyosida madaniy yodgorlik sifatida tan olingan. Xatirchining Sangijumon qishlog'idagi tebranib turuvchi antiqa tosh ham dunyodagi kamyob mo'jizalar sirasidan. Sangijumon — forschada "tebranuvchi", "qimirluvchi tosh", deganidir. Qishloq nomi ham sehrkor tosh nomidan kelib chiqqan. Haybatli toshning aylanasi 20, balandligi 6 metr, vaznini esa 280 tonna, deyishadi. Lekin shunday katta xarsangni hamma bemalol qimirlatishi mumkin. Tebranish toshning biniqiga tirab qo'yilgan cho'plarning egilishidan bilinadi.

Arxeologlarning ta'kidlashicha, Sangijumon 280 million yil avval yer qanidan ko'tarilgan suyuq va qaynoq magmatik jinslardan paydo bo'lgan. Ular o'z vaqtida yer qobig'ini yorib chiqa olmasdan, taxminan 250 million yil oldin ma'lum chuqurlikda qotib qolgan. Sodir bo'lgan kuchli va murakkab tektonik harakatlar hamda eroziya natijasida massivning to'shi ochilgan. Bu yerdagi jinslar

bundan kamida 10 ming yillar ilgari yuzaga chiqqan. Dengiz sathidan 800 — 900 metr balandlikda joylashgan mazkur xarsang darani qoplab yotgan granit toshlarning yirik bir bo'lasi.

Eng qizig'i, hududda turli nomdagi toshlar juda ko'p. Toshlariga ko'rinishi va shakliga qarab nomlar berilgan. Masalan, "Kobra tosh", "Besh panja", "Ayiqling boshi", "Jayra tosh", "Hassa tosh", "Qo'ziqorin tosh". Tebranuvchi tosh yaqinida "Teshik tosh" degan yana bir tosh bor. Rivoyatlarga qaraganda, bu toshning teshigidan faqat gunohi yo'q odam o'ta oladi.

Teshik tosh yonidagi yassi tosh ustida ulkan oyoq izlari ko'zga tashlanadi. Ba'zi rivoyatlarda Nuh kemasi Oqto'vning eng yuqori cho'qqisi — Langar tog'ida langar tashlagani ta'kidlanadi. boshqa birida toshdagi izlar to'fon suvi qaytganidan so'ng yerga qadam qo'yg'an payg'ambarning izlari ekanii aytiladi.

— Bilasizmi, mamlakatimizdagi qazilma boyliklarning 20 foizi Navoiy zaminida, — deya davom etdi safardoshim. — Muruntov dunyodagi eng yirik konlardan biri. Bu zamin javohirotlar makoni. Shuning uchun ham Navoiyni "Ona yurtimizning oltin sandig'i" deyishadi. Ammo... — u chuqur xo'rsindi, o'ylanib qoldi.

Hamma biladi, Navoiy tuprog'i nodir va qimmatbaho ma'danlarga boy. O'zbekiston zaminida o'rganilgan 60 dan ortiq oltin konlarining 40 tasi Qizilqumda. Mazkur javohirlar bugun tillo kamarlarini belga mahkam bog'lab yurtimizga, xalqimizga xizmat qilmoqda.

Oltinimiz yuqori sifati bilan ham jahonga mashhur. 1998-yili Tokio birjasi oltinlarini sifati etaloni, deya e'tirof etdi. 2019-yilda London oltin quymalari bozori assotsiatsiyasi tomonidan bozor talablariga to'la rioya qilish borasida navbatdagi test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganini tasdiqlovchi sertifikat taqdim etildi.

2011-yili "Muruntov" konida dunyoda o'xshashi yo'q yutuq — Tik-qiya konveyer majmuasi ishga tushirildi. Umumiy uzunligi 3 kilometr bo'lgan majmuaning foydalanishga topshirilishi bilan yukni yetkazib berishdagi xarajatlar 50 foizga kamayib, kon chuqurligidagi ma'danlarni tashishda avtoqargichlarning ko'tarilish balandligi 300 metrga qisqardi.

Kanadada joylashgan "KITKO" xalqaro tahlil markazi xulosasiga ko'ra "Muruntov" koni 2020 va 2021-yillarda jahonda birinchi, 2022-yili esa ikkinchi o'rinni egalladi.

So'nggi yetti yilda yangi konlar ochildi, 5 va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati hamda Nurota tumanidagi "Pistal" koni negizida 6-gidrometallurgiya zavodi foydalanishga topshirildi. "Auminzoo-Amantoy", "Balpantov", "Turbay" konlari ishga tushirildi. Natijada qayta ishlab quvvati 2016 — 2024-yillarda 60 million tonnadan 105 million tonnaga ko'paydi. O'sish sur'ati 2023-yildagiga nisbatan 105,3 foizga teng bo'ldi. Oltin ishlab chiqarish rejasii 105,2 foiz, kumush ishlab chiqarish esa 113,4 foizga bajarildi.

— Bir joyda o'qiddim, — deb jimlikni buzdi Abdug'ani. — 2024-yilning o'zida kombinat 93,9 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqaribdi. Salkam 94 trillion! Hazil gapmi bu? Endi hisoblang, mustaqillikka o'tgan yillarda qancha oltin olingan?

Ming afsuski, bu oltinlarning, hatto, changi ham nasib etgan emas o'zimizga. Muruntovni mashhur geolog, nuktadon olim Ibrohim Hamroboev o'chgan. Xazinatopar bu siymo konni ochishga o'chgan-u ammo keyinchalik bu ishidan qanchalar pushaymon bo'lgani yolg'iz o'zi va Allohga ayon bo'lsa kerak. Chunki xazinani uni egallab olgan shimollik xo'jayinlar talaydi, eshelon-eshelon tashib ketadi. Hatto, Istiqolning dastlabki vaqtlarida ham uncha-muncha o'zbek bolasi qadam bosolmasdi kombinat ostonasiga. Men shu yerlikman, yaxshi bilaman, yaqinlashtirilmis, kiritilmis, mahalliy aholi uchun taqa-taq yopiq edi eshigidan tuynugigacha.

Do'stinning kuyunishlari behuda emas. Garchand, 1958-yili "Muruntov" koni ochilib, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilgan, kombinat uran, oltin va kumush ishlab chiqaradigan ulkan korxonaga aylanib, "Asr mo'jizasi" deya tan olingan esa-da, javohirlar qatra-qatrasigacha tashib ketilar edi. 1969-yil kundan ilk marta 11 kilogramm 820 grammlik sof oltin yombisi olinadi.

1971-yildan 999.9 probali oltin chiqarila boshlandi. Ammo ushohig'igacha yalab-yulqib olib ketildi bu boyliklar ham.

— Endi u kunlarga tosh o'tishdan foyda yo'q...

— To'g'ri! — shartta so'zimni bo'ladi Abdug'ani. — Ketgani — ketdi. Ammo haligacha manqurtcha fikrluvchilarning borligi va ularning "O'sha paytlari kolbasa falon so'm, go'sht pismadon so'm edi" qabilidagi yozg'irishlari alam qiladi odamga. G'azabim qaynaydi. Eng yomoni, qashshoq yoki kambag'al emas, surishtirsangiz, bittasi omadi chopmagan alamzada, boshqasi qaysidir vazifani eplolmay yumshoq kursisidan ayirilgan sobiq amaldor bo'lib chiqadi ular. Rostini aytsam, ichim achiydi ularga, insof bersin, elga qo'shilsin, deyman. Lekin qachon qutulamiz bunday irik ko'likdan. Kishanlangan qo'l-oyoq, zanjirband erk, g'ijimlangan adolat, o'z uyindagi xo'rlik, ma'naviy azob... O'lchab bo'larkanmi bularni yarimqadoq kolbasa bilan? Yaratganing buyuk tuhfasi, bobolarimizning yuz yillik orzu murodiku, Mustaqillik! Qul bo'lib qolaversak, oltin daryolarimiz burilarmidi o'zimizning bog'larga, o'zimizning dashtu dalalarga, o'zimizning ko'chalarga? Qachon ko'radik bugungi obodliklarni?!

Fotograf bekorga g'azablangani yo'q. To'g'ri, tog' boshi tumsanz, kurash bexatar bo'lmaydi. Yuz yil qul bo'lib yashagandan, oltin, 467 tasi kumush, 786 tasi bronza. Navoiy viloyatida turistik manzillar nihoyatda ko'p bo'lishiga qaramay, sohaga uzoq yillar uncha e'tibor berilmadi. Masalan, 2017-yilga qadar viloyatda bor-yo'g'i 5 ta oilaviy mehmon uyi. 5 yo'nalishda turistik marshrut va bitta turkompaniya faoliyat yuritgan. Keyingi yillarda oilaviy mehmon uylari 122 taga, turmarshrutlar 70 taga, turfirmalar 75 taga yetdi. 490 ta yangi ish o'rni yaratildi. Sayyohlar safi 635 ming nafardan 2,2 million nafarga ko'paydi.

Turizm qishlog'iga aylantirilgan Nurota tumanining Sentob ovulida 9,4 milliard so'm mablag' hisobiga 5 kilometr yo'l, 2 ta selfi zonasi va boshqa turizm infratuzilmasi yaxshilandi. 2 ta mehmonxona bilan 20 ta mehmon uyi ochildi, 60 kishi ishli bo'ldi.

Endilikda qishloqqa har kuni o'rtacha 300 nafar, bir yilda 44 ming nafar sayyoh kelyapti. Barcha xonadon turizmdan daromad olmoqda.

Yana Xatirchining Langar mahallasida 20 ta oilaviy mehmon uyi, loyiha qiymati 1,5 milliard so'mlik selfi maydonchasi, 5 ta kemping tashkil qilinib, 80 nafar aholi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, Konimex tumanidagi "Yangi ag'z bo'ni" MFYda 500 o'ranga ega o'tovli lager, otda va tuyada sayr, ov qilish, 2 ta restoran, savdo do'konlari, transport hamda turkompaniya xizmatlarini o'z ichiga olgan turizm klasteri ish boshladi.

Haydarko'l bo'yidagi loyiha qiymati 18,3 milliard so'm bo'lgan dam olish maskanida zamonaviy mehmonxonaga, 5 ta kemping, 2 ta glempling, basseyn, restoran hamda turkompaniya xizmatlarini o'z ichiga olgan turizm klasteri tashkil etildi.

Shuningdek, Nurotadagi "Chashma majmuasi", Konimexdagi "Mix ota" masjidi, Navbahordagi "Sarmishsoy" davlat muzey-qorixonasi obod qilindi. 1,3 milliard so'mlik mablag' evaziga Uchquduq tumanidagi "Tosh o'rmon" tabiiy arxeologik obyektida restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirilib, atroflari balandligi 1,8 metr, uzunligi 1,3 kilometr bo'lgan panjara bilan o'raldi, tungi yoritish chiroqlari, kuzatuv kameralari o'rnatildi.

Umuman, oxirgi ikki yilda viloyatda 395 milliard so'mlik 129 ta turizm loyihasi ishga tushdi, 340 kilometr masofada 60 ta obyektidan iborat 14 ta turizm marshrutini o'z ichiga olgan Navoiy "turizm halqasi" ishlab chiqildi.

Nurota tog'lari quchog'idagi Sentob qishlog'i Butunjahon turizm tashkiloti — UNWTOning Samarqand sammitida "Eng yaxshi turizm qishlog'i" deb e'lon qilindi va Butunjahon turizm qishloqlari ro'yxatiga kiritildi. "Raboti Malik", "Sardoba", "Mirsaid Bahrom", "Qosim Shayx", "Mavloni Orif Dehgaroniy" kabi madaniy meros obyektlari YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro'yxatidan joy oldi.

Xudo xohlasa, hademay, Navoiy shahriining Islom Karimov ko'chasida 1,5 kilometr masofada loyiha qiymati 12 milliard so'm bo'lgan Turizm ko'chasi tashkil etildi. Ha, Navoiy viloyati har jihatdan mamlakatimizning "Oltin sandig'i"ga aylanib bormoqda.

Shu joyda bitta haqli savol tug'iladi: xo'sh, "Oltin sandig'i"ni kim ochdi? Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyevning Navoiy viloyatiga qilgan tashriflari mazkur savolga aniq va mukammal javob beradi.

E'tibor bering, Prezident 2017-yildan buyon hududga 7-marta tashrif buyurdi. Bu tashriflarning har biri viloyat tarixida yangi va go'zal sahifalar ochdi. Mana, ularning ayrimlari:

2017-yil. Shu yilgi tashrifidan so'ng Navoiy issiqlik elektr stansiyasining ikkinchi bug'-gaz qurilmasi poydevoriga tamal toshi qo'yildi.

"Marmarobod" davlat unitar korxonasi tashkil etilishi, Nurota Chashmasida keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilishi va Navoiy viloyatining erkin iqtisodiy zonaga aylanishi 2018-2019-yillardagi tashriflar natijasidir.

"National plast" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan sanoatning yangi tarmog'i PVXdan profil va boshqa turdagi mahsulotlar, "Green Line Profil" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan aliyuminiy

profil va aliyuminiy mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilgani, To'dako'l suv ombori hududida "Golden lake fish" mas'uliyati cheklangan jamiyati tuzilgani, "Yangi Asr" fermer xo'jaligi tomonidan loyiha qiymati 60 milliard so'mlik nasli qoramolchilik hamda sutni qayta ishlab sexi ishga tushirilgani; Nurota va Tomdi tumanlarida "Yoshlar mehnat gularlari" qurilib foydalanishga topshirilgani; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qaroriga muvofiq, G'ozg'on shahri tashkil etilgani ham Prezident tashriflarining shirin mevalari hisoblanadi.

Endi 2021-2022-yillardagi tashriflar haqida. 2021-yilgi tashrifdan keyin Karmana tumanida mamlakatimizdagi ilk quyosh fotoelektr stansiyasi ishlay boshladi. "Navoiyoz" aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi hamda ammiak va karbamid ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga start berildi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining texnogen chiqindilarni qayta ishlab korxonasi foydalanishga topshirildi.

2022-yilgi tashrifidan so'ng "Zarafshon Oyna" MCHJda qiymati 250 million dollarlik, "Zarafshon industrial technology" qo'shma korxonasi 60 million dollarlik, "JVContinaz" MCHJ QKda 62,5 million dollarlik, "Chemistry International" MCHJ korxonasi tomonidan qiymati 16 million dollarlik, "Uzbekistan Hydrogen Peroxide" MCHJ QKda 27 million dollarlik loyihalar amalga oshirildi.

Navoiy shahridagi 3 ta chorrahada tarixda birinchi marta sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan "Aqli chorraha" tizimi joriy qilindi.

Yangi Navoiy shahrini qurish uchun 1 ming 100 gektar yer Karmana tumanidan Navoiy shahriga o'tkazildi.

Mamlakat rahbarining bulturigi tashrif doirasida esa shaharning Farovon mahallasida "GRATISS BUILDINGS" MCHJ tomonidan kongress-xoli, 27 qavatli mehmonxonaga, biznes markazi, ko'p qavatli turarjoy kompleksi qurilishiga start berildi.

Yangi Navoiy shahrida ishlabilmonlik markazi va "Yangi O'zbekiston" bog'ining qurilishi uchun 50 million dollar hamda 100 milliard so'm mablag' ajratildi.

Bulardan tashqari, 3 milliard 600 million dollarlik 15 ta loyiha bo'yicha Konimex tumanida yonuvchi slanesarlarni qazib olish va qayta ishlashning birinchi bosqichi, Karmana tumanida 300 megavatt quyosh fotoelektr stansiyasi va 75 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimi, Navoiy shahrida texnik gaz ishlab chiqarish, G'ozg'on shahrida marmar va Zarafshon shahrida granit toshlarni qayta ishlab, Uchquduq tumanida koalin qazib olish va boyitish, Xatirchi tumanida baliq ozuqasi tayyorlash korxonalarini qurilishlari boshlab yuborildi.

Endi so'nggi yillarda aholini elektr, gaz, ichimlik suvi, uy-joy bilan ta'minlash yo'nalishiga doir misollarga murojaat qilamiz:

2017 — 2024-yillarda xalqni tabiiy gaz bilan ta'minlash 61,5 foizga, toza ichimlik suviga ehtiyojini qoplash 85,4 foizga yetdi. 2391 kilometr avtomobil yo'llari, 4695 kilometr elektr uzatish tarmoqlari, 155 kilometr tabiiy gaz, 4575 kilometr irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Yetti yilda 19640 xonadonli 1,2 million kvadrat metr uy-joy qurildi.

Investitsiyalar va sanoatni rivojlantirish hisobiga 3,4 ming, xizmatlar va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 40,8 ming, qishloq xo'jaligi yo'nalishida 74,1 ming, qurilish sohasida 5 ming nafar fuqaro ish bilan ta'minlanishi tufayli bir yilda ishsizlik darajasi 6,3 foizdan 1,9 foizga tushirildi.

Bunday muhtasham raqamlarning hamma-hammasida Yurtboshimizning mehnati, mehri mujassam. Ular davlatimiz rahbarining olis-olislarini ko'zlagan adolatlari siyosatining ilk hosilalaridir.

Rejalar esa... 2017-yilgi tashrifidan so'ng Navoiy issiqlik elektr stansiyasining ikkinchi bug'-gaz qurilmasi poydevoriga tamal toshi qo'yildi.

"Marmarobod" davlat unitar korxonasi tashkil etilishi, Nurota Chashmasida keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilishi va Navoiy viloyatining erkin iqtisodiy zonaga aylanishi 2018-2019-yillardagi tashriflar natijasidir.

"National plast" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan sanoatning yangi tarmog'i PVXdan profil va boshqa turdagi mahsulotlar, "Green Line Profil" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan aliyuminiy



Abdusaid KO'CHIMOV, Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.

profil va aliyuminiy mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilgani, To'dako'l suv ombori hududida "Golden lake fish" mas'uliyati cheklangan jamiyati tuzilgani, "Yangi Asr" fermer xo'jaligi tomonidan loyiha qiymati 60 milliard so'mlik nasli qoramolchilik hamda sutni qayta ishlab sexi ishga tushirilgani; Nurota va Tomdi tumanlarida "Yoshlar mehnat gularlari" qurilib foydalanishga topshirilgani; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qaroriga muvofiq, G'ozg'on shahri tashkil etilgani ham Prezident tashriflarining shirin mevalari hisoblanadi.

Endi 2021-2022-yillardagi tashriflar haqida. 2021-yilgi tashrifdan keyin Karmana tumanida mamlakatimizdagi ilk quyosh fotoelektr stansiyasi ishlay boshladi.

"Navoiyoz" aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi hamda ammiak va karbamid ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga start berildi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining texnogen chiqindilarni qayta ishlab korxonasi foydalanishga topshirildi.

2022-yilgi tashrifidan so'ng "Zarafshon Oyna" MCHJda qiymati 250 million dollarlik, "Zarafshon industrial technology" qo'shma korxonasi 60 million dollarlik, "JVContinaz" MCHJ QKda 62,5 million dollarlik, "Chemistry International" MCHJ korxonasi tomonidan qiymati 16 million dollarlik, "Uzbekistan Hydrogen Peroxide" MCHJ QKda 27 million dollarlik loyihalar amalga oshirildi.

Navoiy shahridagi 3 ta chorrahada tarixda birinchi marta sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan "Aqli chorraha" tizimi joriy qilindi.

Yangi Navoiy shahrini qurish uchun 1 ming 100 gektar yer Karmana tumanidan Navoiy shahriga o'tkazildi.

Mamlakat rahbarining bulturigi tashrif doirasida esa shaharning Farovon mahallasida "GRATISS BUILDINGS" MCHJ tomonidan kongress-xoli, 27 qavatli mehmonxonaga, biznes markazi, ko'p qavatli turarjoy kompleksi qurilishiga start berildi.

Yangi Navoiy shahrida ishlabilmonlik markazi va "Yangi O'zbekiston" bog'ining qurilishi uchun 50 million dollar hamda 100 milliard so'm mablag' ajratildi.

Bulardan tashqari, 3 milliard 600 million dollarlik 15 ta loyiha bo'yicha Konimex tumanida yonuvchi slanesarlarni qazib olish va qayta ishlashning birinchi bosqichi, Karmana tumanida 300 megavatt quyosh fotoelektr stansiyasi va 75 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimi, Navoiy shahrida texnik gaz ishlab chiqarish, G'ozg'on shahrida marmar va Zarafshon shahrida granit toshlarni qayta ishlab, Uchquduq tumanida koalin qazib olish va boyitish, Xatirchi tumanida baliq ozuqasi tayyorlash korxonalarini qurilishlari boshlab yuborildi.

Endi so'nggi yillarda aholini elektr, gaz, ichimlik suvi, uy-joy bilan ta'minlash yo'nalishiga doir misollarga murojaat qilamiz:

2017 — 2024-yillarda xalqni tabiiy gaz bilan ta'minlash 61,5 foizga, toza ichimlik suviga ehtiyojini qoplash 85,4 foizga yetdi. 2391 kilometr avtomobil yo'llari, 4695 kilometr elektr uzatish tarmoqlari, 155 kilometr tabiiy gaz, 4575 kilometr irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Yetti yilda 19640 xonadonli 1,2 million kvadrat metr uy-joy qurildi.

Investitsiyalar va sanoatni rivojlantirish hisobiga 3,4 ming, xizmatlar va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 40,8 ming, qishloq xo'jaligi yo'nalishida 74,1 ming, qurilish sohasida 5 ming nafar fuqaro ish bilan ta'minlanishi tufayli bir yilda ishsizlik darajasi 6,3 foizdan 1,9 foizga tushirildi.

Bunday muhtasham raqamlarning hamma-hammasida Yurtboshimizning mehnati, mehri mujassam. Ular davlatimiz rahbarining olis-olislarini ko'zlagan adolatlari siyosatining ilk hosilalaridir.

Rejalar olamiga o'tishdan avval Navoiydagi yana bir mo'jiza — "Tosh o'rmon" haqida ikki og'iz so'z. U Uchquduqning Mingbuloq qishlog'idan o'ttiz chaqirimcha naridagi Jaraquduq darasida joylashgan. Ilmiy farazlarga ko'ra bundan taxminan 90 — 95 million yillar avval chinorlar qurquloqlar toshga aylanishi natijasida "tosh o'rmon" yuzaga kelgan.

Dunyoning ba'zi mamlakatlarida ham noyob toshlarning sehirli olamini o'zida mujassam etgan "tosh o'rmon"lar mavjud. Xitoyning Yunan muzofotidagi, Rossiyaning Lena daryosi bo'yidagi, Bolgariyaning Varna va Sofiya shaharlari oralig'idagi, AQShning Arizon cho'li va Madagaskarning Singi-de-Bemaraxa milliy bog'idagi "tosh o'rmon"lar shular jumlasidandir.

Qizilqum "Tosh o'rmon"ning boshqalarga o'xshamaydigan jihati shundaki, bu manzilda tosh qotgan chig'anoqlar, akula tishlari va suyaklari, daraxt tanasi va mevalaridan tortib, o'rdakburun danozavrning toshga aylangan boldir suyaklarigacha uchraydi. Bularning barchasi qachonlardir Qizilqum o'rmda ulkan ummon bo'lganidan dalolat beradi.

"Tosh o'rmon"ning shakllanishiga oid quyidagi farazlar bor: o'sha davrda daraxtlar va suv ostida o'sadigan past butalar daryo bo'yilarida joylashgan. Atrofda qumlar suvi bilan oqib kelishi natijasida asta-sekinlik bilan daraxt atroflariga yig'ilib, toshga aylana boshlaydi. Natijada o'simliklar quriydi. Butunlay qurib bitgan daraxtlar o'rmda bo'shliq qazib bo'ladi hamda bu bo'shliq qum va cho'kindilar bilan qoplanadi. Million yillar davomida bu cho'kindilar toshga aylanadi.

"Har ishing o'z chamasii, har daryoning o'z kemasi bor", deydlari. Yo'l barmagan manzila yetolmaganidek, uzoqni chamalab, rejasiz safarga chiqqan kema ham to'fonlar girdobiga tushib qolishi mumkin.

Navoiyliklarning 2025 — 2030-yillarga mo'ljallangan rejalarii esa aniq va qayma.

Bir qarashda osmon mo'jizalarini ko'rib bo'lmaganidek, bir maqolada ham katta viloyat ko'zlayotgan manzillarni qamrab olish mumkin emas. Shu bois bepoyon rejalarining ayrimlarini tilga olamiz. Eng avvalo, noyob xazinalar haqida. 2030-yilgacha oltin ishlab chiqarish — 1,5 barobar, kumush — 3 karra, uran — 3-marta, mis — 3,5 barobar oshadi. Kon-metallurgiya kombinatida 20 dan ziyod yirik investitsiya loyihalarii amalga oshiriladi.

1 trillion so'mdan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 16 taga yetadi.

Zarafshon va G'ozg'on shaharlari hamda Uchquduq tumanidagi 3 ta ixtisoslashtirilgan sanoat zonasida 57 ta loyiha ishga tushiriladi.

Kimyo sanoatida 525 million dollarlik 62 ta loyiha amalga oshiriladi.

Eksport 5 barobar ko'payib, uning yillik hajmi 1,1 milliard dollarni tashkil etadi.

Viloyatning erkin va kichik iqtisodiy sanoat zonasida, Yoshlarning tadbirkorlik va sanoat zonasida 290 ta loyiha ijrosi ta'minlanib, qariyb 6000 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Bu raqam, agar mazkur oilalarning har birida ikkita dan jon bo'lsa 12 ming, uchtdan bo'lsa 18 ming, to'rttdan bo'lsa 24 ming insonning qalbiga quvonch, dasturxonaga to'kinlik, oilasiga xotirjamlik, ertangi kuniga ishonch olib kirdi, deganidir!

Bundan tashqari, shaharlarda 14 364 ta xonadonli 159 ta ko'p qavatli uy bunyod etilishi, 30 964 ta xonadondan iborat 774 ta uyning ta'mirlanishi, tumanlarda 2158 xonadonli 55 ta uy-joy qurilishi bu hisobga kirmaydi.

Tijorat banklari ham qarab turmaydi. Ular 15 744 nafar kishiga 4 533 milliard so'm ipoteka krediti ajratadi.

# DUNYOGA YUZ OCHGAN "VATAN"

"Vatan" jurnali ingliz tilida ham chop etila boshlandi



O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi muassisligida o'tgan yildan boshlab "Vatan" ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy jurnali nashr qilinayotganidan ko'pchilikning xabari bor. Endigina to'rtta soni dunyo yuzini ko'rganiga qaramay, jurnal bir-biridan qiziqarli va dolzarb mavzulardagi materiallari, nafis dizayni bilan o'quvchilar e'tiborini qozonib, ommaviy axborot vositalari orasida o'z o'rnini topishga ulgurdi.

## Taqdimot

Shu yilning 19-mart kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida "Vatan" jurnalining ingliz tilidagi maxsus soni taqdimoti o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi vakillari, faxriy diplomatlar, videokonferensaloqa orqali O'zbekistonning xorijdagi diplomatik korpusi va vakolatxonalar rahbarlari, Oliy Majlis Senati a'zolari, shuningdek, ilmiy va akademik muassasalar, xalqaro tashkilotlar, yetakchi xorijiy va mahalliy OAV vakillari, universitet professor-o'qituvchilari, talabalar qatnashdi.

Tadbiro Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori Sodiq Safoyev ochar ekan, ushbu nashrning ahamiyatini ta'kidlab, jurnal ichki va tashqi siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, san'at, tarix sohalaridagi muhim masalalarni muhokama va tahlil qilish minbariga aylanganini qayd etdi.

– Xo'sh, qanday ehtiyoj sabab jurnali ingliz tilida ham chop etish yo'lga qo'yildi? Bu Prezidentimizning jahon media olamidagi o'zbek milliy kontentini yanada rivojlantirish borasida bergan topshiriqlari ijrosi doirasida amalga oshirilmoqda, – dedi Oliy Majlis Senati a'zosi, jurnal bosh muharriri Husan Ermatov. – Jurnalimiz olimlar, siyosatchilar, ilmiy tadqiqotchilar, tahlilchilar uchun o'z g'oyasi va qarashlarini ifoda qilishda yaqin ko'makchi o'laroq maydonga chiqdi. Nashr barcha uchun ochiq.

Jurnalning ingliz tilida chiqarilishi esa yangi O'zbekiston qiyofasini ilmiy-akademik formatda xalqaro hamjamiyatga namoyish qilishda muhim vositaga aylanoqda.

Tadbir ishtirokchilari jurnalning ingliz tilidagi maxsus sonining video taqdimoti bilan tanishdi.

Jurnal sahifalarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, mintaqaviy hamkorligi va xalqaro maydondagi o'rnini, tarixi, buguni va ertasi borasida keng va chuqur muhohada bilan yozilgan maqolalar o'rin olgan. Ingliz tilidagi maxsus son sahifalari ozarbayjon shoiri Akif Bag'irning "O'zbek kelayotir..." nomli tantanavor she'ri bilan

Dilshod KARIMOV  
("Xalq so'zi").

# KIMYO SANOATI MAMLAKATDA YETAKCHI SOHAGA AYLANADI

Yurtimizda kimyo sanoati sohasini tubdan yangilashga qaratilgan izchil islohotlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad eskirgan kimyoviy mahsulotlar, o'g'itlar ishlab chiqarish va tarqatish tizimini modernizatsiya qilish hamda sarmoyalarni rag'batlantirishdir. Raqobatbardosh sanoatni yaratish, malakali kadrlar bandligini ta'minlash va sanoatda ugletrud ulushini kamaytirish ham ustuvor ahamiyatga ega.

## Nuqtai nazar

Bundan yetti yil oldin kimyo sanoatiga mineral o'g'itlarni sotishning bozor mexanizmlari joriy etilib, ularni Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali iste'molchilarga yuborish yo'lga qo'yilgan edi. Natijada debitor qarzdorlikka barham berildi. Mahsulotlar yurtimizning har qanday hududiga temir yo'l orqali yetkazib berishning yagona tarifi amalga kiritildi. 2018-yil 25-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori bu kabi muammolarni bartaraf qilishda katta ahamiyat kasb etdi.

Hujjatda, avvalo, uglevodorod xomashyosini va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash asosida iqtisodiyot tarmoqlarida va jahon bozorida talab katta bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyo mahsulotlari turlarini kengaytirishga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va faoliyat yuritayotganlarini modernizatsiya qilishga e'tibor qaratildi.

Shu asosda "Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJning kalsiylangan soda ishlab chiqarish quvvati 200 ming tonnaga yetkazilgan bo'lsa, Toshkent viloyatida Xitoyning "Poly Technologies" kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikalari va avtomobillar uchun shinalar, konveyer lentalarini tayyorlash loyihasi ishga tushirildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi arafasida ish boshlagan azot kislotasi hamda ammiak va karbamid korxonalarini soha rivojiga qo'shimcha sur'at beryapti. Umumiy qiymati 1,5 mlrd. dollar bo'lgan mazkur loyihalarni jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini uch barobar oshirish imkonini berdi. Tayyorlanayotgan mahsulotlarning sifati esa xalqaro talabga to'la mos keladi. Bu, o'z navbatida, ularning jahon bozorida xaridorligi va raqobatbardoshligiga ishonch yorlig'i bo'lib xizmat qilayotir.

Ammo sohada faqat erishilgan yutuqlar bilan cheklanib bo'lmaydi. Prezidentimiz shu yil 6-fevral kuni kimyo sanoatida 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan o'tkazgan yig'ilishda so'nggi yillarda bu tarmoqda sezilarli o'zgarish, yangi texnologik janjirlarni yaratish uchun investitsiyalarga keng yo'l

ochilgan bo'lsa-da, yirik kimyo zavodlari faoliyati hali zamon talabari darajasida emasligini ta'kidladi. Ishga solinmagan imkoniyatlar, hal etilishi lozim bo'lgan muammolar aniq ko'rsatib o'tildi.

Masalan, ilg'or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirib, kimyo korxonalarida qo'shilgan qiymatni hozirgidan bir necha barobar oshirish mumkin. Davlat rahbari bu boradagi kamchiliklarni qayd etib, yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarni karrasiga ko'paytirish vazifasini qo'ydi. Tarmoqdagi har bir korxonani raqamlashtirish, quvvatlaridan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va tannarxni kamaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Xususan, energiyani tejash va mahalliyashtirish orqali tannarxni 6 foizgacha kamaytirish mumkinligi aytili.

Mahsulot tannarxini pasaytirishga o'ta jiddiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki unda xomashyo, energiya sarfi, ish haqi, ijtimoiy sug'urt, amortizatsiya ajratmalari kabi sarf-xarajatlardan tortib, mahsulotni o'rash, joylash, yetkazib berish, sotish bilan bog'liq boshqa chiqimlar o'z ifodasini topadi. Tannarx qancha past, sifat yuqori bo'lsa, mahsulot shuncha xaridorligi bo'ladi. Kimyo sanoatida bundan 7-8 yil oldin mahsulot ishlab chiqarish narxida xarajatlari ulushi 99,7-100 foizni tashkil etgan. Ularning 64 foizi energetika resurslariga sarflangan. Vaholanki, o'sha keza xorijiy korxonalarda bu ko'rsatkich 25 – 30 foiz atrofida bo'lgan. Agar O'zbekistonda bir tonna ammiak ishlab chiqarishga 1450 kub metr tabiiy gaz yoqilsa, zamonaviy uskunalaridan foydalaniladigan chet el kompaniyalarida mazkur miqdor 902 kub metr dan oshmaydi. Azot ishlab chiqarish tannarxida energiya resurslarining ulushi 70 foizdan ham oshib ketgan va uning sarfi zamonaviy kompaniyalaridagiga nisbatan 1,6-marta ortiq bo'lgan. Hisob-kitoblari tejankor quvvatlarini ishga tushirish energiya sarfini 2-2,5 baravar, ammiakning tannarxini esa 1,8 baravar pasaytirish mumkinligini ko'rsatdi. Umuman, kimyo sanoatida energiya iste'moli bir foiz kamayishi mahsulot tannarxini 0,6-0,8 foiz pasaytirish imkonini beradi.

Aytish joizki, "O'zbekimyoanoat"



aksiyadorlik jamiyati mavjud kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yagona korporativ tizim hisoblanib, bugungi kunda uning tarkibiga 24 ta tashkilot kiradi. "O'zbekimyoanoat" AJ ilgari faqat mineral o'g'it ishlab chiqarish bilan shug'ullanib kelgan bo'lsa, hozirgi kunda tayyorlanayotgan boshqa turdagi kimyo mahsulotlarining turi 110 tadan oshdi hamda jami ishlab chiqarish hajmining to'rtidan birini tashkil etmoqda. Kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategiya amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda boshqa turdagi kimyo mahsulotlarining ulushi 55 foizga yetadi.

Ilg'or islohotlar va texnologiyalarga investitsiyalar kiritish orqali kimyo sanoati mamlakat iqtisodiy rivojlanishida katalitik rol o'ynashi mumkin. Shu maqsadda O'zbekiston

kompaniyalaridan zamonaviy uskunalar keltirib o'rnatildi. Qo'shimcha 150 ta ish o'rni yaratildi.

Modernizatsiya ishlarining birinchi bosqichi doirasida ammoniyashlangan superfosfat, sudva tez eruvchan kompleks mineral o'g'itlar, azot-fosfor-kaliyli (NPK) mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Zavod quvvati yiliga 75 ming tonnadan 450 ming tonnaga yetkazildi. Xomashyo mahalliy korxonalaridan olib kelinadi. Masalan, fosforit uni Qizilqumdan, sulfat kislotasi Olmaliqdan, ammoniy sulfat Chirchiqdan, ammiak "Farg'onazo'f" va "Navoiyazo'f" Aldan keltiriladi. Bu mahsulot tannarxini barqaror saqlash imkonini berayotir.

Yana bir jihati, modernizatsiya natijasida ishlab chiqarishga sarflanadigan elektr energiya va tabiiy gaz xarajatlari 35 – 40 foizga qisqartirishga erishildi. Bundan tashqari, atrof-muhitni ifoslantirmaslik uchun asosiy ishlab chiqarish sexlariga to'rt bosqichli tozalash uskunalarini o'rnatildi. Ilgari bu faqat ikki bosqichli bo'lgan. Korxonaga yiliga 30 mln. dollar mahsulotni eksport qilish quvvatiga ega. Bugungi kunda MDH, Yevropa, Afrika va Osiyoning 16 davlatiga mineral o'g'itlar eksport qilinmoqda. Korxonaga yirik kimyo klasteriga aylanib, nafaqat iqtisodiy,



fosfat ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Loyiha qiymati – 100 million dollar. 235 ta ish o'rni yaratiladi.

Navoiy viloyatida kimyo sanoati rivojlangan. Hududda mineral resurslar ko'p, tarmoq infratuzilmasi va kadrlar salohiyati yaxshi. Istiqbolli korxonalar tashkil etish uchun esa mamlakatimizda qulay iqtisodiy muhiti va tadbirkorlarga sharoit bor.

Korxonaga xitoylik ishlabchilar tomonidan "Zarafshon industrial technology" nomi ostida kimyo texnoparki barpo etilmoqda. Mazkur majmua uchun 130 gektar yer maydoni ajratilgan. Bu yerda umumiy qiymati 1 mlrd. dollardan ortiq bo'lgan 18 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Hozirgacha ularning ikkita – 40 ming tonna oleum, 170 ming tonna sulfat kislotasi oshirish loyihalari ishga tushirildi. E'tiborsiz, sulfat kislotasi ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan issiqlikdan unumli foydalanish maqsadida 1,4 megavatt quvvatga ega bug'-gaz qurilmali energiolok qurilgan. Bu korxonaga o'zini o'zi to'liq elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa o'rinda aytisak, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida kimyo va gaz-kimyo sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 mlrd. AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish vazifalari belgilangan. Ushbu chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda mamlakatda kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturi tizimni ravishda amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham yirik sanoat korxonalarini tashlamalarini keskin qisqartirish maqsadlari ilgari surilgan.

Shu jihatdan, mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bosimini kamaytirish maqsadida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash strategiyasi ro'yobga chiqarilmoqda. Bu jarayonda "O'zbekimyoanoat" AJ Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda O'zbekistonda kimyo sanoati bo'yicha past ugletrudli strategiya va "Yo'l xaritasini" ishlab chiqishda yaqin hamkorlik qilayotgani e'tiborga molik.

Botir USMONOV,  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori,  
texnika fanlari doktori,  
professor.

**"Aytish joizki, "O'zbekimyoanoat" aksiyadorlik jamiyati mavjud kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yagona korporativ tizim hisoblanib, bugungi kunda uning tarkibiga 24 ta tashkilot kiradi. "O'zbekimyoanoat" AJ ilgari faqat mineral o'g'it ishlab chiqarish bilan shug'ullanib kelgan bo'lsa, hozirgi kunda tayyorlanayotgan boshqa turdagi kimyo mahsulotlarining turi 110 tadan oshdi hamda jami ishlab chiqarish hajmining to'rtidan birini tashkil etmoqda. Kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategiya amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda boshqa turdagi kimyo mahsulotlarining ulushi 55 foizga yetadi."**

bu borada Xitoy, Rossiya, AQSh, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar bilan sheriklik orqali ushbu sohani modernizatsiyalashga astoydil bel bog'lagan. Masalan, "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ moliyaviy sog'lomlashtirish va diversifikatsiya qilish maqsadida 2019-yilda Singapurning "Indorama Holdings BV" kompaniyasiga investitsiya majburiyatlarini solingan edi. Uning negizida "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" korxonasi ochilib, 70 mln. dollar xorijiy investitsiya jalb etildi va ishlab chiqarish texnologiyalari modernizatsiya qilindi. Ispaniya, AQSh, Xitoy, Hindiston, Turkiya va Rossiya davlatlarining yetakchi

balki ijtimoiy namuna bo'lishi kerak. Shu ma'noda, korxonaga izchil rivojlanmoqda va keyingi bosqichlar bo'yicha ham ish olib borilmoqda.

Ikkinchi bosqich doirasida 50 mln. dollar investitsiya o'zlashtirildi. Shveysariya, Germaniya, Hindiston, Xitoy va Italiyadan zamonaviy texnologik uskunalar keltirib o'rnatildi. Ushbu bosqichda yiliga 24 mln. dollarlik kaliy sulfat, sulfat kislotasi va ammoniy-xlorid o'g'itlari ishlab chiqariladi va 120 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Uchinchi bosqich ishlay 2025 – 2028-yillarda amalga oshiriladi. Uning mono va dikalsiy fosfat, kaliy-nitrat, azot-fosfor-kaliyli kompleks mineral o'g'it, kalsiy xlorid, mono ammoniy fosfat, mono kaliy

# "KUN HAMALGA KIRDI ERSA KELDI OLAM NAVRO'ZI"

Navro'zning umumxalq bayrami sifatida qadimdan to shu kungacha nishonlanib kelinayotganida shoir, adib, mutafakkirlarning ham xizmati beqiyos. Mazkur ayyomning ta'rifi va tarixi haqida olimlar o'z ilmiy asarlarida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan, shoiru adiblar esa lirik she'rlarida ayyom shukhi va mohiyatini tarannum etgan.



## Tadqiq

Ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Navro'zning bebafo yodgorlik ekanini haqida muhim ma'lumotlar beradi. Dunyoga mashhur olim va shoir Umar Hayyom esa maxsus "Navro'znom" asarini bitgan.

Alloma va shoir Firdavsiy "Shohnoma"da bu qutlug' ayyomni "Dilda na g'am qoldi, na adovat-kin", "Bu baxtiyor kuni o'shandan buyon, shohlardan yodgor deb bilurtar hamon", deb talqin qiladi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bahorni, ko'klamdagi uyg'onish onlarini tavsiflab, "Bahor qasidasini"ni yozgan va ma'lum ma'noda Navro'zga ham ishoralar qilgan.

Rabg'uziy ham adib, ham qo'zi sifatida xalq hayotini yaxshi bilgan. Navro'zning xalq hayoti hamda milliy koloritida tutgan o'rnini yuksak baholagan. Turkiy nasrning eng qadimgi namunasi bo'lgan "Qissasi Rabg'uziy" asarida bahorni tasvirlar ekan, to'liqlanib Navro'z haqida o'zbek tilida ilk g'azalini bitadi. Asarda ko'hna Xorazmning bahori, Navro'zi yuksak estetik ehtiros bilan kuylanadi:

**Kun hamalga kirdi ersa keldi olam Navro'zi,  
Kechdi bahman zamharir qish qolmadi qori buzi.  
Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,  
Tong badizlab naQShi birla bezanur bu yer yuzi.**

Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarida yozishicha, Eronning peshdodiyati sulolasiga mansub uchinchi hukmdori Jamshid Ixtar shahrida shaharsozlik madaniyati asosida Chilmnora nomli bir ulug' bino qurdiradi. Ushbu qasming ochilishi yangi kun – Hutning Hamalga o'tishiga to'g'ri kelgan va bu holatni hukmdor Navro'z deb atagan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida qutlug' ayyom qadriyatlarini ma'nosi va ahamiyatiga bir necha bor murojaat qilgan. Masalan, "Bu damki esib nasimi Navro'z, Gul atrini qildi majlisafro'z", deydi bir she'rida. Yana birida "Ulus chehrati olam afro'zidin, Bilur yil kelishini Navro'zidin", deb yozarkan, xalq dahosi yaratgan "Yilning yaxshi kelishi bahordan ma'lum" maqolini misra qatiga mahorat bilan joylaydi.

Buyuk shoir davlat arbobi sifatida xalq hayotida Navro'zning ham, adolatning ham qiymati baland ekanini chuqur his qilgan holda "Saddi Iskandariy"da "Adolat aro fasli Navro'zdek", deya bu ikki tushunchani o'zaro mengazaydi. Ya'ni birinchidan – adolat barchaga barobar bo'lgani kabi Navro'z bayramini hukmdor ham, xalq ham birgalikda nishonlaydi, ikkinchidan, mamlakatning obod va farovon bo'lishida adolat ham, Navro'z qadriyatlarini ham muhim o'rin tutadi.

Ulug' shoir qirq yillik ustoz Pahlavon Muhammadning mazmunli, ta'sirli suhbatlarini sog'inib, unga baho berarkan, Navro'zning beqiyos mohiyatiga tashbeh etadi: "Pahlavonning suhbatlari Navro'z bayramicha erdi". Bunday e'tirof boshqa

manbalarda deyarli uchramaydi. Shuningdek, ulug' shoir dehqonlarga bergan ta'rifida ham ushbu bayramga ishoralar qiladi. Chunki bu kundan boshlab dehqonlar dalaga urug' sochgan. Alisher Navoiy dehqonning yerga qadagan har bir urug'ni xalqqa rizq-nasiba bo'lib qaytishini aytib, uni farishtadan ustun qo'yadi. "Tunu kun teng ekan zohir o'lur bo'ldi chu Navro'z" tasviri esa daho shoir Navro'z bilan bog'liq hodisalardan biri – 21-martda kun va tunning teng kelishiga urg'u beradi.

Mo'im-musulmonlar muborak Ramazon oyida bo'ladigan Qadr kechasiga fazilatli va xosiyatli tun sifatida e'tibor qaratadi. Buyuk ajdodimiz ushbu kechaning ulug'ligiga qiyosan Navro'zning ham ahamiyatini balandlarga ko'taradi: "Zulfi ruxsor ila koming'a meni yetkursang, Har tuning Qadr o'lubon, har kuning o'lusun Navro'z".

Ulug' shoh va shoir Mirzo Bobur "Boburnoma"da bahor faslida uyushtirgan sayillari va chiqqan sayru sayohatlarini haqida xabarlarini yozgan. 1503-1504-yillar voqealari bayonida u lyd bilan Navro'z bayramining ketma-ket kelgani haqida xabar beradi va bu xayrli, xosiyatli holatdan ilhomlanib shunday yozadi:

**Yangi oy yor yuzi birla ko'rub el shod bayramlar,  
Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g'amilar.  
Yuzi Navro'zi vasli yidini, Bobur, g'animat tut –  
Ki, mundin yaxshi bo'imas, bo'lsa yuz Navro'zi bayramlar.**

"Boburnoma"da keltirilgan mazkur baytlar keyinchalik yetti baytlik g'azalga aylantirilgan va shoir devonidan ham o'rin olgan. Shoir, adib, mutafakkirlarning ma'lumot va lirik tasvirlarida ular bahorni, Navro'zni intilq bilan kutishgani, ko'tarinki ruhda nishonlagani, qadrlagani ayonlashadi. Bu tasvirlarda ma'lum ma'noda xalq hayoti, ularning orzu-istaklari aks etganini inobatga olsak, ijodkor ziyolilarimiz hamisha o'z umidlari ro'yobini shu el-yurt taqdiri bilan bog'lagani yana bir bor namoyon bo'ladi.

Burobiya RAJABOVA,  
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi.

## Chirchiq shahri aprel oyida og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston chempionatiga mezbonlik qiladi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoye slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.46 Topshirildi – 01.50

1 2 3 4 5 6